

## BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIRIN” HAMDA “XUFYONA” IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH ZARURATINING EMPERIK TAHLILI

**Nazarova Ra’no Rustamovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Yashil” iqtisodiyot kafedراسi mudiri, i.f.d., prof.  
ORCID: 0000-0001-5626-0926

**Najmiddinov Yahyo Fazliddin o‘g‘li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Yashil” iqtisodiyot kafedراسi katta o‘qituvchisi  
ORCID: 0009-0004-0221-0121  
E-mail: [yakhonajmiddinov1996@gmail.com](mailto:yakhonajmiddinov1996@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bo‘lgan “yashirin” va “xufyona” iqtisodiyotning hajmi hamda ulushi empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududlar kesimida aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkichi barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatori sifatida qabul qilinib, unga xufiyona va yashirin iqtisodiyotning absolyut hajmi hamda YaIMdagi ulushi o‘rtasidagi bog‘liqlik OLS regressiya modeli yordamida baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashirin va xufyona iqtisodiyotning yuqori darajasi hududlarning iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi, fiskal barqarorlik va investitsion jozibadorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini cheklaydi. Ushbu natijalar xufyona iqtisodiyotni qisqartirish, iqtisodiy shaffoflikni oshirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish barqaror rivojlanishning muhim sharti ekanini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Barqaror iqtisodiy rivojlanish, yashirin iqtisodiyot, xufyona iqtisodiyot, iqtisodiy shaffoflik, hududiy rivojlanish, aholi jon boshiga YaIM, fiskal barqarorlik, iqtisodiy institutsiyalar, OLS regressiyasi, makroiqtisodiy barqarorlik.

### Abstract

This article empirically analyzes the size and share of the “shadow” and “underground” economy, which is one of the important factors influencing sustainable economic development, using the example of the regions of Uzbekistan. In the study, the GDP per capita indicator by region is taken as the main indicator of sustainable economic development, and the relationship between the absolute volume of the shadow and hidden economy and its share in GDP is assessed using the OLS regression model. The research results show that a high level of the shadow and secret economy reduces the economic efficiency of regions, negatively affects fiscal stability and investment attractiveness, and limits sustainable economic growth rates. These results confirm that reducing the shadow economy, increasing economic transparency, and deepening institutional reforms are important conditions for sustainable development.

**Keywords:** sustainable economic development, shadow economy, underground economy, economic transparency, regional development, GDP per capita, fiscal stability, economic institutions, OLS regression, macroeconomic stability.

### Аннотация

В данной статье на примере регионов Узбекистана эмпирически анализируются размер и доля “теневой” и “скрытно” экономики, которая является одним из важных факторов, влияющих на устойчивое экономическое развитие. В исследовании в качестве основного показателя устойчивого экономического развития принят показатель ВВП на душу населения в разрезе регионов, а взаимосвязь между абсолютным объемом теневой и теневой экономики и ее долей в ВВП оценивается с помощью регрессионной модели OLS. Результаты исследования показывают, что высокий уровень теневой и теневой экономики снижает экономическую эффективность регионов, негативно влияет на фискальную стабильность и инвестиционную привлекательность, ограничивает устойчивые темпы экономического роста. Эти результаты подтверждают, что сокращение теневой экономики, повышение прозрачности экономики и углубление институциональных реформ являются важными условиями устойчивого развития.

**Ключевые слова:** устойчивое экономическое развитие, теневая экономика, скрытно экономика, экономическая прозрачность, региональное развитие, ВВП на душу населения, фискальная стабильность, экономические институты, регрессия OLS, макроэкономическая стабильность.

### KIRISH

Raqamli iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi, rasmiy sektorda faoliyat yurituvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar ulushi va soliqqa tortish tizimining samaradorligi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotning rasmiy statistikada aks etmaydigan qismini tashkil etuvchi yashirin (informal) iqtisodiyot hamda soliqlardan qochish, noqonuniy faoliyat yoki noqonuniy daromadlarni yashirish bilan bog‘liq xufyona (shadow) iqtisodiyot mamlakatning fiskal barqarorligi, investitsion muhit va iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillar ta‘sirini baholash lozim. Yashirin iqtisodiyot, odatda, rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan, biroq iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar yig‘indisini anglatsa, xufyona iqtisodiyot esa soliqlarni chetlab o‘tish, noqonuniy aylanma, korrupsiya va moliyaviy hisobotlarning soxtalashtirilishi bilan bog‘liq faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu iqtisodiy hodisalarning yuqori ulushi bir necha muhim xavflarni keltirib chiqaradi: davlat byudjeti tushumlari kamayadi, ijtimoiy infratuzilmalarni moliyalashtirish imkoniyatlari torayadi, rasmiy biznes uchun raqobat sharoitlari buziladi, korrupsiya kuchayadi va iqtisodiy siyosatning samarali rejalashtirilishi murakkablashadi. Shunday ekan, yashirin va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish barqaror iqtisodiy o‘sinh, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va aholining farovonligi uchun zarur shart hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayonlari, soliq

ma'murchiligi islohoti, biznes muhitini yaxshilash va institutsional islohotlar ushbu sohani tartibga solishning eng samarali vositalari sifatida maydonga chiqmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va iqtisodiy shaffoflikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarning markazida iqtisodiyotning yashirin va xufyona segmentlarini qisqartirish masalasi turib, bu yo'nalish bir qator strategik hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, soliq tizimini modernizatsiya qilish va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mamlakatning strategik rivojlanish dasturlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli farmonida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Farmonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh va shaffof bozor institutlarini shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, ushbu jarayonning asosiy tarkibiy qismi sifatida yashirin va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish masalasi alohida e'tiborga olingan. Strategiyada soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, fiskal ochiqlikni ta'minlash, biznes jarayonlarini soddalashtirish va iqtisodiy faoliyatni to'liq rasmiylashtirish orqali norasmiy sektorni minimallashtirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan.

Farmonda quyidagi asosiy vazifalar ko'rsatib o'tilgan:

- soliq ma'murchiligini to'liq raqamlashtirish, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va real vaqt monitoring tizimlari orqali xufyona aylanmani aniqlash va cheklash;
- tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirish, davlat xizmatlarining 100 % raqamlashtirilishi va litsenziyalash jarayonlarining qisqartirilishi orqali norasmiy faoliyat uchun rag'batlarni kamaytirish;
- rasmiy bandlikni kengaytirish, mehnat munosabatlarini elektron platformalar orqali nazorat qilish, norasmiy mehnatga qarshi kurashish va aholini rasmiy mehnatga jalb qilish;
- korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, byudjet jarayonlaridagi shaffoflikni oshirish, davlat xaridlarini ochiq mexanizmlar orqali amalga oshirish;
- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron to'lovlar ulushini oshirish, naqd pul aylanmasini qisqartirish va iqtisodiy tranzaksiyalarni izchil qayd etish.

Ushbu chora-tadbirlar mamlakatda iqtisodiy shaffoflikning ta'minlanishi, fiskal bazaning kengayishi, rasmiy iqtisodiyot ulushining ortishi va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda fundamental ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Shuningdek, 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmoni amaliy bosqichga chiqarishning ustuvor yo'nalishlari sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yashil iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarning muhim tarkibiy qismi

sifatida iqtisodiyotdagi yashirin (informal) va xufyona (shadow) faoliyat hajmini keskin qisqartirish zarurati alohida ta'kidlanadi.

Chunki iqtisodiyotdagi yashirin va xufyona sektorining kengayishi:

- fiskal barqarorlikni zaiflashtiradi;
- davlat daromadlarining to'planishini cheklaydi;
- yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini qisqartiradi;
- iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda aniqlikni kamaytiradi;
- korrupsiya va qonunbuzarliklar xavfini oshiradi.

Farmonda quyidagi yondashuvlar alohida urg'u bilan bayon etilgan bo'lib, unda yashirin iqtisodiyotning eng katta segmenti norasmiy mehnat bozori ekanligi qayd etilgan. Strategiyada mehnatga oid munosabatlarni raqamlashtirish, mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish orqali norasmiy bandlikni kamaytirish belgilangan. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qiladi. Shu bois strategiyada iqtisodiy faoliyatni to'liq raqamlashtirish, rasmiylashtirish, soliq va mehnat munosabatlarni modernizatsiya qilish orqali yashirin va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish barqaror, ekologik yo'naltirilgan o'sishning kalit omili sifatida e'tirof etiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, yashirin va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish har bir mamlakat uchun o'ziga xos, biroq umumiy tamoyillarga tayangan kompleks yondashuvni talab etadi.

AQSh tajribasi soliqqa tortish va rasmiy hisobotlar tizimining shaffofligi, kuchli institutsional nazorat va keng qamrovli elektron audit tizimlariga asoslangan. Internal Revenue Service (IRS) tomonidan joriy etilgan elektron soliq deklaratsiyasi, real vaqt monitoringi va penalti tizimi xufyona aylanma va soliqlardan qochishni minimal darajaga tushirishda muhim rol o'ynaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (Germaniya, Niderlandiya, Chexiya va boshqalar) iqtisodiy shaffoflikni oshirishda raqamli to'lovlar infratuzilmasi, mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish bo'yicha qat'iy talablar va korrupsiyaga qarshi ilg'or mexanizmlar orqali sezilarli natijalarga erishgan. Masalan, Chexiya va Slovakiya tomonidan joriy etilgan elektron hisob-faktura (e-Invoice) tizimi yashirin aylanmani qisqartirishda juda samarali bo'lgan.

Osiyo davlatlari, xususan, Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiya, raqamli texnologiyalar, blokcheyn asosidagi fiskal monitoring tizimlari, onlayn-kassa mashinalari (ECR), QR-kodli cheklar va soliq imtiyozlari orqali norasmiy faoliyatni sezilarli darajada qisqartirishga erishgan. Janubiy Koreyaning "Tax Refund System" tizimi, Singapurning "Smart Nation" raqamlashtirish strategiyasi iqtisodiy faoliyatni to'liq raqamlashtirish orqali yashirin operatsiyalar bo'shliqlarini tugatishga qaratilgan.

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, yashirin va xufyona iqtisodiyotni kamaytirish uchun institutsional shaffoflik, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi samaradorligi va iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlarini modernizatsiya qilish eng muhim vositalardir.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashirin va xufyona iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish, fiskal barqarorlik va institutsional samaradorlikka ta'siri bo'yicha dunyo ilmiy maktablarida turli yondashuvlar shakllangan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida Schneider va Enste 2000-yilda xufyona iqtisodiyotning hajmi va sabablarini tizimli tahlil qilib, soliqqa tortish yukining yuqoriligi, tartibga solish mexanizmlarining murakkabligi va naqd pul aylanmasining kengligi norasmiy sektorni kengaytiruvchi asosiy omillar ekanini ta'kidlaydi[3]. Feige 2016-yilda AQSh misolida xufyona iqtisodiyotni o'lchashning eng samarali metodlarini (MIMIC, currency demand, strukturaviy modellashtirish) solishtirib, iqtisodiy shaffoflikni oshirishda elektron fiskal tizimlarning ahamiyatini ko'rsatadi[4].

Yevropa adabiyotlarida ham iqtisodiyotning yashirin va xufyona sektori chuqur o'rganilgan. Buehn va Schneider 2012-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha xufyona iqtisodiyot darajasi institutlar sifati, soliq ma'murchiligi samaradorligi va korrupsiyaning pastligi bilan bevosita bog'liqligini empirik jihatdan asoslaydi. Williams va Windebank 2019-yilda Yevropada norasmiy sektorga ta'sir qiluvchi institutsional va ijtimoiy omillarni tahlil qilib, haddan tashqari tartibga solish va soliq yukining yuqoriligi norasmiy faoliyatni kuchaytirishini ko'rsatadi[4].

MDH davlatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy institutlarning zaifligi va korrupsiyaning yuqoriligi xufyona iqtisodiyotni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi. Kireev 2017-yilda Rossiya va Qozog'iston misolida rasmiy bandlikning pastligi hamda naqd pul aylanmasining kengligi yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini belgilab berishini ta'kidlaydi. Nureev 2020-yilda esa o'tish davridagi iqtisodiyotlarda institutsional "tuzoq"lar mavjudligi xufyona iqtisodiyotning barqarorlashuviga olib kelishini, uni kamaytirish uchun chuqur institutsional islohotlar zarurligini qayd etadi[9].

Osiyo davlatlari tajribasi raqamli transformatsiya norasmiy iqtisodiyotni kamaytirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Park 2018-yilda Janubiy Koreyada elektron hisob-fakturalar, QR-kodli cheklar va onlayn fiskal monitoring tizimlari joriy etilishi natijasida yashirin va xufyona iqtisodiyot ulushi keskin qisqarganini ko'rsatadi. Hassan va Rahman 2021-yilda Osiyo mamlakatlari bo'yicha panel tahlil asosida institutsional sifatning yuqoriligi va soliq ma'murchiligi samaradorligi xufyona iqtisodiyot darajasini sezilarli kamaytirishini, shuningdek norasmiy sektor iqtisodiy o'sishni pasaytiruvchi omil ekanini ta'kidlaydi[10].

Xalqaro adabiyotlar tahlili yashirin va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, fiskal barqarorlikni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy shaffoflikni oshirishda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston hududlari bo'yicha barqaror iqtisodiy rivojlanishga yashirin va xufyona iqtisodiyotning ta'siri empirik jihatdan baholandi.

Tahlil uchun 2024-yil bo'yicha hududlar kesimidagi ma'lumotlar yig'ilib, aholi jon boshiga YaIM barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi sifatida tanlandi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida xufyona iqtisodiyot hajmi va ulushi, yashirin iqtisodiyot hajmi va ulushi qo'llanildi.

Empirik bog'liqlikni aniqlash maqsadida cross-section OLS regressiya modeli qo'llandi, bunda aholi jon boshiga YaIMning logarifmlangan shakli qaram o'zgaruvchi sifatida baholandi. Modelning ishonchliligi heteroskedastiklik, multikollinearlik va F-statistika orqali tekshirildi. Qo'shimcha ravishda, 2010–2024-yillar bo'yicha milliy vaqt qatori ma'lumotlari asosida yashirin va xufyona iqtisodiyotning uzoq muddatli ta'siri dinamik tahlil orqali baholandi. Natijada, iqtisodiyotdagi yashirin va xufyona iqtisodiyot sektorining qisqarishi barqaror iqtisodiy o'sishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror iqtisodiy o'sishning eng asosiy va universal ko'rsatkichlaridan biri yalpi ichki mahsulot (YaIM) hisoblanadi. YaIM iqtisodiyotning umumiy ishlab chiqarish hajmini aks ettirib, mamlakatda yaratilayotgan iqtisodiy qiymatning o'sish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Xususan, aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichi iqtisodiy farovonlik, mehnat unumdorligi va hududlarning rivojlanish darajasini baholashda eng ishonchli indikatorlardan biri sifatida xalqaro tajribada keng qo'llanadi.

Shu bois, ushbu tadqiqotda barqaror iqtisodiy o'sishning empirik asosini aynan YaIM va aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichlari orqali baholash maqsadga muvofiq deb topildi. YaIMning hududlar bo'yicha farqlanishi iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini, investitsiya oqimlari taqsimotini, ishlab chiqarish salohiyati va infratuzilmaning rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beradi. Yana bir tomondan, yillar bo'yicha YaIMning o'sish sur'atlari mamlakatda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy islohotlarning natijadorligini, iqtisodiy sikllarning o'zgarishini va ichki talabning barqarorligini baholash imkonini yaratadi.

Mamlakat iqtisodiyoti va hududiy rivojlanishning asosiy indikatorlari sifatida YaIM va YaHM ko'rsatkichlarining umumiy dinamikasi tahlil qilinadi. Xususan, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy liberallashtirish, soliq tizimini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlari ishlab chiqarish hajmiga qanday ta'sir ko'rsatgani ko'rib chiqiladi. Shuningdek, hududiy farovonlik darajasini aks ettiruvchi aholi jon boshiga YaIMning hududlar kesimidagi tafovutlari va ushbu tafovutlarga ta'sir qiluvchi omillar empirik ravishda baholanadi.


Ushbu tahlillar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hududlararo notekisliklarni kamaytirish, iqtisodiy siyosatning mintaqaviy yo'naltirilgan mexanizmlarini takomillashtirish hamda yashirin va xufyona iqtisodiyotning hududlar rivojlanishiga salbiy ta'sirini chuqur anglash imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, quyida keltirilgan jadvalda mamlakatning yillar kesimida hamda hududlar kesimida YaHM ko'rsatkichlarini ko'rish mumkin (1-jadval).

**1-jadval.**
**Mamlakat kesimida hamda hududlar kesimida YaIM hamda YaHM ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

Hududlar	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y
O'zbekiston Respublikasi	705076	861170	1041878	1261806	1535432
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26136.6	30697.7	36667.6	40805.2	46299.8
Andijon viloyati	44097.9	50817.3	65233.4	80337.5	93026.3
Buxoro viloyati	36621.6	44628.2	53714.9	63693.4	73434.1
Jizzax viloyati	20871.6	26338.6	31274.3	38570.3	43545.9
Qashqadaryo viloyati	42298.6	51181.1	59822.3	71425	83950
Navoiy viloyati	60326.4	69162.2	78668.2	93651.5	130439.5
Namangan viloyati	34169.1	41993.6	50668.2	61074.9	71869.1
Samarqand viloyati	49635.9	61599.3	71714.9	86313.3	103882.7
Surxondaryo viloyati	28533.6	34694.1	40789.7	49208.9	56553.9
Sirdaryo viloyati	14676.8	17318.2	20746.6	24873	28655.5
Toshkent viloyati	74685.6	94668.7	105520	124087.1	151251.8
Farg'ona viloyati	45653.1	58406.3	68370.1	81573.3	93605.7
Xorazm viloyati	24668.3	30907.3	38927.4	45358.6	53640
Toshkent shahri	111465.3	144477.1	178973.3	222926.1	302878.5

Mamlakat miqyosida YaIM hajmiga e'tibor qaratilsa, yillar kesimida uning muntazam ravishda o'sib borayotganini ko'rish mumkin. 1-rasmda keltirilgan infografikada ham ushbu holat yaqqol aks ettirilgan.



**1-rasm. O'zbekiston respublikasining 2020-2024-yillar oralig'idagi YaIM miqdori<sup>2</sup>**


<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

2020–2024-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining YaIM hajmi izchil o‘shish trendini namoyon qildi. 2020-yilda pandemiya ta‘siriga qaramay, 705076,5 mlrd so‘m ko‘rsatkichi bilan iqtisodiyotda barqarorlik saqlab qolindi. Keyingi yillarda YaIMning o‘shish sur‘atlari sezilarli darajada tezlashdi: 2021-yilda qariyb 22 %, 2022-yilda 21 % atrofida, 2023-yilda esa 19 % miqdorida o‘shish qayd etildi. 2024-yilda YaIM 1535431,7 mlrd so‘mga yetib, tahlil davrining eng yuqori iqtisodiy natijasini ta‘minladi.

2020–2024-yillar davomida YaIMning umumiy hajmi qariyb 2,18 baravar oshgani iqtisodiyotning yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lganini hamda tashqi xavflarga nisbatan moslashuvchanlik darajasi ortganini ko‘rsatadi. Ushbu ijobiy dinamikalar hududiy tarkibiy islohotlar, raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi iqtisodiy dasturlar samarasi sifatida baholanishi mumkin.

2-rasmda esa hududlar kesimida YaIM ko‘rsatkichlari aks ettirilgan.



**2-rasm. Hududlar kesimida 2020-2024-yillar oralig‘idagi YaIM miqdori<sup>1</sup>**

2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududlarining YaIM ko‘rsatkichlari barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon qildi. Mazkur davrda barcha viloyatlarda ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar sohasi va investitsion faollikning ortishi natijasida YaIM izchil oshib borgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand, Farg‘ona va Namangan viloyatlari mamlakatning asosiy iqtisodiy

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

drayverlari sifatida yetakchilik qilmoqda. Navoiy viloyati resurslarga boy sanoat salohiyati sababli yuqori YaHM ko'rsatkichini saqlab qolgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida nisbatan past miqdorlar qayd etilgan bo'lsa-da, yillar davomida YaHMning sezilarli o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.

Hududlar bo'yicha YaHMning izchil oshishi mintaqalarda iqtisodiy faollikning jonlanayotganini, infratuzilma va ishlab chiqarish loyihalarining kengayib borayotganini, shuningdek, tarkibiy islohotlar natijasida hududiy iqtisodiy salohiyatning mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Hududlar o'rtasida o'sish sur'atlarining farqlanishi esa iqtisodiy rivojlanishning notekis taqsimlanganligini hamda mintaqaviy siyosatni yanada muvozanatli olib borish zarurligini anglatadi.

Mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari yildan yilga oshib bormoqda. Biroq boshqa tomondan qaralganda, hududlar kesimida yashirin hamda xufyona iqtisodiyot ko'rsatkichlari ham yildan yilga ortib bormoqda. 2-jadvalda ushbu holatning yaqqol ifodasini ko'rish mumkin.


## 2-jadval.

### Hududlar kesimida yashirin hamda xufyona iqtisodiyot ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

Hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
O'zbekiston Respublikasi	262630.5	318166	360525.8	434140.4	527360.9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11274.4	12692.2	15191.4	18357.7	21774.6
Andijon viloyati	22201.4	26051.1	30187.7	36832.9	42355.3
Buxoro viloyati	20047.6	23554.5	26032.9	31375.5	36078.6
Jizzax viloyati	11552.7	14269.1	15729.7	18898.8	21596.8
Qashqadaryo viloyati	23989.1	28183.9	31209.6	37654.1	44451.2
Navoiy viloyati	11505.8	13908.2	15379.1	19134	22801.5
Namangan viloyati	19200.1	22977.6	26822.4	32192.2	38076.1
Samarqand viloyati	25456.8	31551.6	34743.2	42589.6	51443.5
Surxondaryo viloyati	16339.1	19714.1	22703.1	27467.1	31782.1
Sirdaryo viloyati	6576.4	7475.2	7987.2	9760	11424
Toshkent viloyati	26831.7	33563.8	35580.8	44231.8	53672.3
Farg'ona viloyati	22595.5	28781.8	32635	39225.2	46010.1
Xorazm viloyati	13963.7	17264.3	20623.9	24263.1	29439.6
Toshkent shahri	31093.8	38157.8	45674.3	52129.9	76421.6


Mamlakat miqyosidagi xufyona iqtisodiyot ko'rsatkichiga e'tibor qaratadigan bo'lsak 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 2 barobarga ortganligini ko'rish mumkin. 3-rasmda o'sish surati yaqqol ifodalangan.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



**3-rasm. Mamlakat miqyosida yashirin va xufyona iqtisodiyot ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

2020-2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda yashirin va xufyona iqtisodiyot ko'rsatkichlari izchil o'sib borgan. 2020-yilda 262630,5 mlrd so'm bo'lgan ko'rsatkich 2021-yilda 318166 mlrd so'mga, 2022-yilda 360525,8 mlrd so'mga yetgan. 2023-yilda bu hajm 434140,4 mlrd so'mgacha oshgan bo'lsa, 2024-yilda 527860,9 mlrd so'mga ko'tarilib, tahlil davridagi eng yuqori darajani qayd etgan.



**4-rasm. Hududlar kesimida yashirin va xufyona iqtisodiyot ko'rsatkichlari<sup>2</sup>**

Hududlar kesimida yashirin va xufyona iqtisodiyot ko'rsatkichlari sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatmoqda. 4-rasmdan ko'rinib turibdiki, Toshkent shahri,

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

Toshkent viloyati, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida yashirin iqtisodiyot hajmi eng yuqori darajada bo‘lib, bu holat mazkur hududlarda iqtisodiy faollikning yuqoriligi, xizmatlar sektori ulushining kattaligi hamda aholining yuqori zichligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ushbu hududlarda norasmiy mehnat bozori va naqd pul aylanmasining nisbatan kengligi xufyona iqtisodiy faoliyatning yuqori darajasiga sabab bo‘lmoqda.

Aksincha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko‘rsatkichlar nisbatan pastroq qayd etilgan bo‘lib, bu hududlarda iqtisodiy bazaning cheklanganligi, sanoat ulushining pastligi va iqtisodiy operatsiyalar hajmining nisbatan kamligi bilan bog‘liq. O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar Navoiy, Namangan va Samarqand viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi, bu esa mazkur hududlarda norasmiy faoliyat mavjud bo‘lsa-da, uning miqyosi iqtisodiy rivojlanish darajasiga mutanosib ekanini anglatadi.

Hududlar bo‘yicha farqlanish yashirin va xufyona iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi soni, urbanizatsiya jarayonlari, rasmiy bandlik darajasi va soliq ma‘murchiligi samaradorligiga bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatadi. Bu holat mintaqalar uchun yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat hamda rasmiylashtirish choralarini individuallashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

3-jadvalda keltirilgan jadvalda xufyona hamda yashirin iqtisodiyotning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari aks ettirilgan.

### 3-jadval.

#### Iqtisodiyot tarmoqlarida yashirin hamda xufyona iqtisodiyotning ulushi<sup>1</sup>

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024
Jami	262630.5	318166	360525.8	434140.4	527360.9
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	102333.3	121368.7	133480.5	157886.2	173087.3
Sanoat	27868.4	31324	28849	34239.8	42222.5
Xizmatlar	110802.7	138479.6	169149.4	208327.3	273151.6
Qurilish	21626.1	26993.6	29046.8	33687.1	38899.4

2020–2024-yillar oralig‘ida jami yashirin va xufyona iqtisodiyot hajmi izchil o‘sib borgan bo‘lib, 262,6 ming mlrd so‘mdan 527,3 ming mlrd so‘mgacha ko‘tarilgan. Bu norasmiy faoliyatning iqtisodiyotda sezilarli ulushga ega ekanini anglatadi.

Tarmoqlar kesimida eng yuqori ulush qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Qishloq xo‘jaligida yashirin iqtisodiyot hajmi 2020-yildagi 102,3 ming mlrd so‘mdan 2024-yilda 173,0 ming mlrd so‘mga yetgan. Bu holat sohada norasmiy mehnat ulushining yuqoriligi, naqd pul aylanmalarining ustuvorligi va kichik ishlab chiqaruvchilar salmog‘ining katta ekanligi bilan izohlanadi. Xizmatlar sektorida ham o‘sish sur‘atlari yuqori bo‘lib, 2020-yilda 110,8 ming mlrd so‘mni tashkil etgan ko‘rsatkich 2024-yilda 273,1 ming mlrd so‘mga yetgan. Bu esa mazkur sektor yashirin va xufyona iqtisodiyotning eng yirik manbalaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Sanoat tarmog‘ida yashirin iqtisodiyot ulushi nisbatan past bo‘lsa-da, o‘sish dinamikasi barqaror hisoblanadi. Qurilish sohasida esa 2020–2024-yillar davomida

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lib, bu sohada norasmiy ishchi kuchi ulushi va kontraktlash jarayonlaridagi shaffoflik muammolari mavjudligini anglatadi.

4-jadval iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yashirin va xufyona iqtisodiyot miqyosining kengayib borayotganini, eng yuqori ulush esa qishloq xo'jaligi va xizmatlar sektorida shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu holat mazkur sohalarda rasmiylashtirish jarayonlarini kuchaytirish, soliqlik ma'murchiligini takomillashtirish va raqamlashtirish choralarini yanada jadallashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashirin va xufyona iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan tahlil qilish maqsadida panel OLS regressiya modelidan foydalanildi. Quyida keltirilgan jadvalda ushbu regressiya tahlili uchun asosiy ko'rsatkichlar aks ettirilgan.

#### 4-jadval.

##### Regression tahlil uchun asosiy statistik ko'rsatkichlar<sup>1</sup>

Hududlar	YaIM (Y)	Yashirin va hufyona iqtisodiyot (X1)	Yashirin va hufyona iqtisodiyot YaIMdagi ulushi (X2)
O'zbekiston Respublikasi	1535432	527360.9	34.3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	46299.8	21774.6	47
Andijon viloyati	93026.3	42355.3	45.5
Buxoro viloyati	73434.1	36078.6	49.1
Jizzax viloyati	43545.9	21596.8	49.6
Qashqadaryo viloyati	83950	44451.2	52.9
Navoiy viloyati	130439.5	22801.5	17.5
Namangan viloyati	71869.1	38076.1	53
Samarqand viloyati	103882.7	51443.5	49.5
Surxondaryo viloyati	56553.9	31782.1	56.2
Sirdaryo viloyati	28655.5	11424	39.9
Toshkent viloyati	151251.8	53672.3	35.5
Farg'ona viloyati	93605.7	46010.1	49.2
Xorazm viloyati	53640	29439.6	54.9
Toshkent shahri	302878.5	76421.6	25.2

#### 5-jadval.

##### Omillar o'rtasidagi korrelyatsion tahlil<sup>2</sup>

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)
(1) YaIM	1.000		
(2) YXIX	0.995	1.000	
	(0.000)		
(3) YXIXFK	-0.346	-0.258	1.000
	(0.207)	(0.353)	

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

Korrelyatsiya natijalari shuni ko‘rsatadiki, YaIM va YXIX o‘rtasida juda yuqori darajadagi musbat bog‘liqlik mavjud ( $r = 0,995$ ,  $p < 0,001$ ). Bu yashirin va xufyona iqtisodiyot hajmi yuqori bo‘lgan hududlarda YaIM hajmi ham yuqori ekanini anglatadi, ya’ni iqtisodiy faollik ortgan sari norasmiy iqtisodiyot hajmi ham kattalashadi. Ushbu holat ko‘pincha rivojlangan iqtisodiy markazlarda yashirin hamda xufyona iqtisodiyot hajmining ham yuqori bo‘lishi bilan izohlanadi.

YaIM va YXIXFK o‘rtasidagi bog‘liqlik esa past va manfiy ( $r = -0,346$ ) bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatli emas ( $p > 0,2$ ). Bu yashirin va xufyona iqtisodiyot ulushining oshishi YaIMga bevosita ta’sir ko‘rsatmasligini, ya’ni ulushning o‘sishi iqtisodiy hajm bilan izchil bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

YXIX va YXIXFK o‘rtasidagi korrelyatsiya ham past darajada ( $r = -0,258$ ) va statistik jihatdan ahamiyatli emas ( $p > 0,3$ ), bu esa yashirin va xufyona iqtisodiyotning absolyut hajmi hamda uning YaIMdagi ulushi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud emasligini bildiradi. Umuman olganda, jadval YaIM bilan faqat YXIX o‘rtasida sezilarli darajada kuchli bog‘liqlik mavjudligini, qolgan bog‘liqliklar esa statistik ahamiyatga ega emasligini ko‘rsatadi.

### 6-jadval.

#### Omillar o‘rasidagi regression tahlil natijasi<sup>1</sup>

Linear regression	Number of obs	=	15
	F(2, 12)	=	106.20
	Prob > F	=	0.0000
	R-squared	=	0.8408
	Root MSE	=	.41087

lnYaIM	Coefficient	Robust std. err.	t	P> t	[95% conf. interval]	
YXIX	5.80e-06	5.57e-07	10.40	0.000	4.59e-06	7.01e-06
YXIXFK	-.0276914	.0091398	-3.03	0.010	-.0476053	-.0077774
_cons	12.29298	.4929329	24.94	0.000	11.21897	13.36698

6-jadvaldagi regressiya natijalari O‘zbekiston hududlari bo‘yicha YaIMning o‘zgarishini yashirin va xufyona iqtisodiyot ko‘rsatkichlari orqali baholashga qaratilgan bo‘lib, YaIMning logarifmlangan qiymatiga ta’sir etuvchi omillarni aniq ifodalab bermoqda. Olingan qiymatlar asosida chiziqli regressiya tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\ln(YaIM) = 12.29298 + 0.0000058*YXIX - 0.0276914*YXIXFK$$

Modelga ko‘ra, yashirin va xufyona iqtisodiyotning absolyut hajmi (YXIX) YaIM bilan kuchli va ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘lib, koeffitsiyentning musbat va statistik

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

jihatdan ahamiyatli chiqishi iqtisodiy jihatdan faol hududlarda norasmiy sektor hajmi ham kattalashishini anglatadi. Bu, o'z navbatida, hudud iqtisodiyoti o'sib borgani sari norasmiy aylanmalar hajmi ham ko'payishini bildiradi, ya'ni hajmning o'sishi iqtisodiy faollik darajasining yuqoriligini aks ettiradi.

Biroq yashirin iqtisodiyotning ulushi (YXIXFK) manfiy koeffitsiyentga ega. Bu shuni anglatadiki, yashirin iqtisodiyotning rasmiy iqtisodiyotga nisbatan ulushi oshgan sari YaIM pasayish tendensiyasini namoyon etadi. Ya'ni, ulushning ortishi iqtisodiy o'sishni cheklaydi, rasmiy sektor faoliyatini siqib chiqaradi va fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijalar iqtisodiy mazmunda quyidagi bog'lanishni ifodalaydi: yashirin iqtisodiyot hajmi iqtisodiy faol hududlarda ko'proq kuzatiladi va shu sababli YaIM bilan birgalikda o'sadi, biroq uning ulushi oshib borishi iqtisodiyotning ichki tarkibi buzilayotganini, iqtisodiy faoliyatning katta qismi rasmiy tizimdan tashqariga chiqayotganini anglatadi. Bu holat YaIMning real va barqaror o'sishini sekinlashtiradi. Shu tariqa, model hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy determinantlari sifatida yashirin iqtisodiyotning hajmi va ulushi o'rtasidagi farqli ta'sir mexanizmlarini aniq yoritib beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar, normativ-huquqiy tahlil, xalqaro tajriba va O'zbekiston hududlari bo'yicha o'tkazilgan empirik hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanayotgan bo'lsa-da, yashirin va xufyona iqtisodiyot hajmi ham yildan yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda. 2020–2024-yillar davomida YaIM ham, YaHM ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan holda, yashirin hamda xufyona sektor hajmining deyarli ikki barobar kengaygani iqtisodiy o'sish va institutsional islohotlar norasmiy faoliyatni avtomatik ravishda kamaytirib yubormayotganini ko'rsatadi. Hududlar kesimida olingan natijalar Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand, Farg'ona va boshqa iqtisodiy faolligi yuqori hududlarda yashirin va xufyona iqtisodiyotning absolyut hajmi ham yuqori ekanini, iqtisodiyoti nisbatan kichik hududlarda esa ko'rsatkichlar pastroq bo'lishiga qaramay, ulush jihatidan sezilarli darajada ekanini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlil qishloq xo'jaligi va xizmatlar sektori yashirin hamda xufyona iqtisodiyotning eng yirik manbalari ekanini, qurilish va sanoat tarmoqlarida ham norasmiy faoliyat barqaror sur'atlarda ortib borayotganini tasdiqlaydi.

OLS regressiya modeli natijalari yashirin va xufyona iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmini aniqroq yoritib berdi. Yashirin va xufyona iqtisodiyot hajmi yuqori bo'lgan hududlarda YaIM ham katta bo'lishi, bir tomondan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan markazlarda rasmiy va norasmiy faoliyat birgalikda o'sayotganini, iqtisodiy masshtab oshgani sari yashirin hamda xufyona sektor ham kengayishini anglatadi. Biroq modelda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli koeffitsiyentga ega bo'lib, uning ortishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishini, rasmiy sektorni siqib chiqarishini, fiskal barqarorlik va investitsion jozibadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Demak, iqtisodiyot hajmining kengayishi bilan bog'liq ravishda yashirin hamda xufyona sektorning absolyut o'sishi

tabiiy holat bo‘lishi mumkin, biroq uning ulushi oshib borishi barqaror rivojlanish uchun jiddiy xavf omiliga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash uchun O‘zbekistonda yashirin va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha kompleks va izchil siyosatni davom ettirish zarur. Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonlarida belgilanganidek, soliq ma‘murchiligini to‘liq raqamlashtirish, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, QR-kodli cheklar va real vaqt rejimidagi fiskal monitoring tizimlarini barcha hudud va tarmoqlarda to‘liq joriy etish yashirin hamda xufyona aylanmalarni aniqlash va qisqartirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, mehnat munosabatlarini raqamlashtirish, mehnat shartnomalarini soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish, rasmiy bandlikka o‘tishni rag‘batlantiruvchi soliq va ijtimoiy imtiyozlar yaratish zarur, chunki yashirin iqtisodiyotning eng yirik segmenti aynan norasmiy mehnat bozoriga to‘g‘ri keladi. Uchinchidan, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va qurilish tarmoqlarida naqd pul aylanmasini qisqartirish, elektron to‘lovlar infratuzilmasini kengaytirish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning soddalashtirilgan, biroq shaffof rejimlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish lozim. To‘rtinchidan, hududlar bo‘yicha farqlanishni inobatga olgan holda, har bir viloyat uchun alohida “yo‘l xaritasi” ishlab chiqib, soliq ma‘murlari, mahalliy hokimliklar va bank tizimi hamkorligida yashirin hamda xufyona sektorni rasmiy iqtisodiyotga bosqichma-bosqich integratsiya qilish mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Beshinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash, davlat xaridlarida ochiqlik va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish nafaqat institutsional islohotlar samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy operatsiyalarning rasmiy sektorga o‘tishi uchun zarur ishonch muhitini ham shakllantiradi.

Yakuniy xulosa shuki, O‘zbekistonda o‘tkazilgan empirik tahlil yashirin va xufyona iqtisodiyotni qisqartirish barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, fiskal barqarorlikni mustahkamlash va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonlarini jadallashtirish uchun strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Iqtisodiy siyosatning keyingi bosqichlarida yashirin hamda xufyona sektorni kamaytirish nafaqat soliq bazasini kengaytirish yoki byudjet daromadlarini oshirish vazifasi sifatida, balki mintaqaviy rivojlanishdagi tafovutlarni qisqartirish, adolatli raqobat muhitini shakllantirish va kelajak avlodlar uchun barqaror farovonlik poydevorini yaratishning asosiy sharti sifatida qaralishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063> .

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot”

yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni  
<https://lex.uz/uz/docs/-7369703>

3. Enste, D.H. va Schneider, F. (2000) 'Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences', Journal of Economic Literature, 38(1), 77–114.  
<https://research.jku.at/en>

4. Buehn, A. va Schneider, F. (2012) 'Shadow economies around the world: novel insights, accepted knowledge and new estimates', International Tax and Public Finance, 19(1), 139–171. <https://ideas.repec.org>

5. Medina, L. va Schneider, F. (2018) Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? IMF Working Paper No. 18/17, International Monetary Fund, Washington, DC. <https://www.imf.org>

6. Williams, C.C. (2019) 'Explaining and tackling the informal economy: an evaluation of competing perspectives', Open Economics, 2(1), 63–75.  
<https://www.degruyterbrill.com>

7. Israilova, A. va Israilov, M. (2023) 'Analysis of the main determinants of the shadow economy based on selected countries of Central Asia', Russian Law Journal (onlayn maqola). <https://www.connectedpapers.com>

8. Kurpayanidi, K.K. (2024) 'Multidimensional approach to combating the shadow economy: theory and practice', Byulleten nauki i praktiki (Bulletin of Science and Practice), 10(5), 424–431. <https://cyberleninka.ru>

9. Pinskaya, M.R. (2022). «Управление рисками при сокращении неформальной экономики на примере Республики Узбекистан». Финансовая экономика (onlayn maqola). <https://cyberleninka.ru>

10. Sung, M.J., Awasthi, R. va Lee, H.C. (2017) Can Tax Incentives for Electronic Payments Reduce the Shadow Economy? Korea's Attempt to Reduce Underreporting in Retail Businesses. Policy Research Working Paper No. 7936, World Bank, Washington, DC. <https://link.springer.com>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

<b>Muharrir:</b>	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
<b>Ingliz tili muharriri:</b>	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
<b>Rus tili muharriri:</b>	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
<b>Musahhih:</b>	Karimova Shirin Zoxid qizi
<b>Sahifalovchi va dizaynerlar:</b>	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, dekabr, 12-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**